

**Navoiy davlat konshilik va texnologiyalar universiteti huzuridagi Nukus konshilik instituti tashqi bo‘lim dekani (Phd), Asel Kurbanbayeva taqrizi ostida**

**Tolibayeva Dinara**

**Navoiy davlat konshilik va texnologiyalar universiteti huzuridagi Nukus konshilik instituti 3-kurs talabasi**

## **EKOLOGIK TUSHUNCHALARING RIVOJLANISHI VA SHAKLLANISH TARIXI**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Ekologiya fanining kelib chiqishi hamda rivojlanish tarixi haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Ekologiya,ekologik tushuncha,o'simliklar,hayvonot olami,tabiiy resurslar,antik davr.

### **Kirish**

Ekologiya atamasining dastlabki ta'rifi taniqli nemis biologi Ernest Gekkel tomonidan uning «Organizmlarning umumiy morfologiyasi» (1866-y.) va «Olam vujudga kelishining tabiiy tarixi» (1868-y.) kabi ilmiy asarlarida keltirilgan. Unga ko‘ra ekologiya lug‘aviy jihatdan yunoncha; oykos (oikos) - yashash makoni, o‘rni, joyi hamda logos (logos) fan, mantiq so‘zlari birikmalaridan tuzilgan atamadir. Ma’nosiga ko‘ra tirik organizmlarning yashash sharoiti yoki tashqi muhit bilan o‘zaro munosabatini anglatadi.

Ekologiya biologik yo‘nalishdagi fanlardan biri sifatida XIX asrning o‘rtalarida shakllandi. Dastlabki davrlarda u alohida olingen tirik organizmlarni o‘rab turuvchi o‘lik tabiat bilan munosabatini o‘rgangan.Ekologiya mustaqil fan sifatida XIX asrning oxirlarida keng tan olingen bo‘lsa-da, uning ekologiya deb atalib, umumiy lug‘atga kirishi XX asrning so‘nggi (1960-2000-y.) o‘n yilliklariga to‘g‘ri keladi.

**Materiallar va uslublar:** Ekologiya fanining rivojlanishida uning o‘rganish obyekti va unga ilmiy yondashish jihatlariga ko‘ra bir necha davrlarni farqlash mumkin. Bu davrlar ba’zi manbalarda fanning bo‘limlari sifatida ham ta’riflanadi.

Birinchi davr – tabiatni kuzatish va tavsiflash, tirik organizmlarning muhit bilan o‘zaro munosabatlarini o‘rganish davri.

Ikkinchi davr – tirik organizmlar va ular yashaydigan muhitni yaxlit funksional tizimlari, ya’ni ekotizimlarni o‘rganish davri.

Uchinchi davr - ekotizimlarni birgalikda o‘zaro munosabatlarini o‘rganish davri.

To‘rtinchi davr - Yerdagi barcha tirik organizmlar va ularning yashash muhitini birgalikda, ya’ni biosfera sifatida o‘rganish davri.

Beshinchi davr - biosferada inson ongini yetakchi o‘rin egallashi bilan bog‘liq ravishda shakllanadigan noosferani o‘rganish davri.

**Natiyja va muhokamalar:** Tirik organizmlarning hayoti tashqi muhitga bog‘liqligi qadimdan ma’lum. Antik davrda yashagan faylasuflarning asarlarida hayvonlarning turli instinctlari, baliqlar va qushlarning migratsiyalari, o‘simliklarning tashqi qiyofasi tuproq va iqlim sharoitlari bilan bog‘liqligi haqidagi ma'lumotlar keltiriladi. Dastlabki ekologik tushunchalar qadimgi yunon olimlari asarlarida qayd etilgan bo‘lib, ularning ishlarida biz ekologik yo‘nalishlarni ko‘ramiz. Lekin ular «Ekoliya» terminini ishlatishmagan. Aristotel (eramizdan 384 - 322 yil avval), qadimgi yunon faylasufi Teofrast (371-280 yil) hayvon va o‘simliklarni yashash sharoitiga bog‘liq holda ko‘rib chiqishgan, Aristotel 500 tur hayvonlarni o‘rganib, ularning hulq-atvori, ko‘chib yurishi haqida, Teofrast – o‘simliklarning shakli va o‘sishi - iqlim, tuproq sharoitiga bog‘liqligini haqida ma'lumotlar berishgan.O‘ta asrlarda O‘ta Osiyoda yashab ijod etgan olimlardan al-Xorazmiy, Farobiy, Beruniy, Ibn Sino va

boshqalar tabiiy fanlarining rivojlanishiga katta hissa qo'shganlar. Ular hali ekologiya fani dunyoga kelmagan davrda tabiat va undagi muvozanat, o'simlik va hayvonot dunyosi, tabiatni e'zozlash haqidagi o'zlarining qimmatli fikrlarini aytib o'tganlar.[1]

Abu Rayxon Beruniy koinotdagi hodisalarni taraqqiyot qonunlari bilan, narsa va hodisalarning o'zaro ta'siri bilan tushuntirishga urinadi. Uning asarlarida o'simlik va hayvonlarning biologik xususiyatlарини, ularning tarqalish va xo'jalikdagi ahamiyati haqida ma'lumotlar topish mumkin. U «Saydانا» nomli asarida 1116 tur dori-darmonalarni tafsiflagan. Ularning 750 tasi turli o'simliklardan, 101 tasi hayvonlardan, 107 tasi minerallardan olinadi. Har bir o'simlik, hayvon va mineralarning xossalari, tarqalishi va boshqa xususiyatlari keltirilgan. Beruniy asarlarida o'simlik va hayvonlarning tuzilishi hamda ularning tashqi muhit bilan o'zaro aloqasi haqida ham qiziqarli ma'lumotlar keltiriladi. U o'zining tabiiyilmiy kuzatishlari, tajribalari asosida tabiatdagi hodisalar ma'lum tabiiy qonuniyatlar asosida boshqariladi, degan xulosaga keladi.[2]

Abu Ali ibn Sino (980 - 1037) jahon madaniyatiga buyuk hissa qo'shgan yirik ensiklopedist olim. Turli yozma manbalarda uning 450 dan ortiq asar yozganligi eslatiladi. Bizgacha uning 240 ta asari yetib kelgan. Uning «Tib qonunlari» asari tibbiyot ilmining qomusi bo'lib, O'rta asr tibbiyot ilmi taraqqiyotining oliv cho'qqisi hisoblanadi. Kishi organizmiga tashqi muhit ta'siri muhimligini bilgan alloma ayrim kasalliklar suv va havo orqali tarqalishi haqida fikr bayon etgan. Zahiriddin Muhammad Bobur (1483 - 1530).

Bobur bir necha bor yer qimirlashi, oy va quyosh tutilishi kabi tabiiy hodisalar guvohi bo'lgan. Ushbu hodisalarning tabiat qonunlaridan boshqa narsa emasligiga ishonch hosil qilgan.[3]

Fransuz olimi M.Byuffon (1707-1788) ning ishlarida hayvonlarning tuzilishiga tashqi muhitning ta'siri masalasi ko'tarilgan.

J.B.Lamark (1744-1829) dastlabki evolyutsion ta'limotning muallifidir. U o'simlik hamda hayvonlarning evolyutsion o'zgarishlarida eng muhim omil tashqi muhit ta'sirini deb hisoblagan.

Ch.Darvin «Tabiiy tanlash yo'li bilan turlarning kelib chiqishi» (1859) asarida – tabiatdagi yashash uchun kurash, ya'ni tur bilan muhit o'rtasidagi har qanday qarama-qarshiliklarning ko'rinishlari tabiiy tanlashga olib keladi va evolyutsianing harakatlantiruvchi kuchidir deb qaraydi

Rus olimlari - V.N.Sukachev, B.A.Keller, V.V.Alyoxin, V.G.Ramenskiy, A.P.Shennikov va chet el olimlaridan - F.Klements, K.Raunkiyer, T.Dyu. Riye, I.Braun - Blake va boshqalarning fitotsenologiya sohasidagi ishlari umumiy biotsenologiyaning rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. Umumiy ekologiyaning rivojlanishida D.N.Kashkarovning «Muhit va jamoa» deb nomlangan O'rta Osiyo universitetida o'qigan ma'ruzalari, keyinchalik «Hayvonlar ekologiyasi asoslari» nomi bilan yozilgan darsligi katta ahamiyatga ega bo'ldi.[5]

**Xulosa** qilib shuni aytish mumkinki ekologiya va tabiat haqidagi fanlarning rivojlanish tarixi insonlar jamiyati rivojlanishiga bog'liqdir. Shuning uchun ham bu sohadagi bilimlarni chuqurlashtirish lozim. Ayniqsa shuni ta'kidlash joizki, ekologiya va tabiiyfanlarning rivojlanish tarixini yoritish, zabit etilmagan qirralarini aniqlash va uni kelajak avlodga yetkazish bugungi kunning dolzarb masalasiga aylanmog'i darkor. Yuqorida aytib o'tganimiz kabi, bizning buyuk allomalarimiz tabiat, tirik organizmlar va ularning tashqi muhit bilan o'zaro aloqasiga doyr masalalarga to'xtalganlar.

### **Foydalanimanligi adabiyotlar:**

- 1.www.ziyonet.uz [1].
2. Saloxiddinov A.T, Valiev X.I., Xolmirzaeva M. «Ekologiya» Toshkent, 2014.[2]
3. Mustafayev S, O'roqov S, Duvonov A. «Umumiy ekologiya» Toshkent, 2006.[3]
4. Hamdamov J., Bobomurodov Z., Hamdamova E. «Ekologiya» Toshkent, 2009.[4]